

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ro'zimurodov Jo'raqul Xamroqul o'g'li

**Annotatsiya:** *Maqolada yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni yuksaltirish masalalari, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, ta'lim shakllari, inklyuziv ta'lim, UNCPRD, UNICEF, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.*

**Abstract:** *The article analyzes the reforms in the education system of the country and their importance, issues of raising inclusive education, the pedagogical significance of the concept of development of inclusive education in the public education system in 2020-2025.*

**Keywords:** *education, forms of education, inclusive education, UNCPRD, UNICEF, pedagogical analysis, method, social policy.*

### KIRISH

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida 2017-yil sentyabr oyida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan taklif: "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi Xalqaro Konvensiya loyihasi ishlab chiqildi. "Yoshlar huquqlari bu eng avvalo birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashash hamda ta'lim olishga bo'lgan huquqlari hisoblanadi. ...unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi"[1].

Bosh Qomusimizning 41-moddasi hamda Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun(2020-yil 23-sentyabr) 5-moddasi qoidalariga asosan ta'lim olishda barcha teng huquqlidir[2]. Bu qonun inklyuziv(uyg'unlashgan) ta'lim tushunchasi kiritilganligi bilan ham avvalgi tahriridan farqlanib turadi va buqonunga muvofiq Inklyuziv ta'lim sohasidagi vakolatli organ etib Vazirlar Mahkamasi belgilangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda ta'limning inklyuziv shaklini ham birdek rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv termini inglizcha-uyg'unlashish, hamkorlikdagi ta'lim ma'nosini berib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Ayni damda barcha mamlakatlarda ham inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

1990-yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqyosida deklaratsiya va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. 2006-yilda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi(UNCPRD) qabul qilindi. 2009-yil 27-fevralda bu hujjat mamlaktimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu Konvensiyaning 24-moddasida: "Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadilar. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida oqitilishlarini ta'minlaydi", deb belgilangan.[3]

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. 1996 yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda «Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar» mavzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi. Mazkur anjuman YuNESKO, YuNISEF (BMTning bolalar jamg'armasi), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001-yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi qoshida Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi.

### **MUHOKAMA**

"O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lim" loyihasi 2014-yildan buyon hozirga qadar amalga oshirilib, uning doirasida alohida ehtiyojli 900 dan ortiq o'g'il-qiz maktablar, maktabgacha ta'lim maskanlarida umumiy ta'limga jalb etildi. Tibbiy, psixologik va pedagogik komissiya a'zolari hamda pedagog xodimlar ta'lim sohasida inklyuziv xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitildi. Yurtimizning turli hududlarida beshta pilot resurs markazlari tashkil etilib, ularda alohida ehtiyojli bolalar, ularning ota-onalari, ekspertlar uchun o'quv-uslubiy, huquqiy, maslahat ko'magi ko'rsatildi. "Inklyuziv ta'lim asoslari", "Alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar umumiy ta'limda", "Inklyuziv maktabni tashkil etish" nomli o'quv modullarining yaratilgani, bu yo'nalishda ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, pedagog xodimlarning kasb mahoratini oshirish imkonini berdi. Jismoniy imkoniyati cheklanganligi oqibatida inklyuziv ta'limga htiyoji bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiylashuvi uchun zarur shart-sharoitlar va mexanizmlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilish mamlakatning oz fuqarolari oldidagi ma'naviy funksiyasi hisoblanadi.

### **NATIJALAR**

OATIJARon Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori asosida 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida

inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi natijalar kutilmoqda:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarning rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatga integratsiyalashuvida inklyuziv ta'limning strategik omil sifatidagi roli tasdiqlanadi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limiy muhiti yaxlitligi mustahkamlanadi, ularning jamiyatga integratsiyasi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi;

davlat, jamiyat, shaxsning inklyuziv ta'lim sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratiladi;

inklyuziv ta'lim tizimining umumiy qulayligi, uzluksizligi, ta'lim sifati, shuningdek o'quvchilarning rivojlanish darajasi, xususiyatlariga moslashuvchanligi va variativligiga erishiladi;

inklyuziv ta'lim sohasidagi xalqaro munosabatlar doirasida o'zaro hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi;

o'quvchilar ta'limiy ehtiyojlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;

inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari optimallashtiriladi, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning teng huquqli jamiyat a'zosi sifatida umumta'lim muassasalarida bilim olishi ta'minlanadi; pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilanadi; inklyuziv ta'lim muassasalarining Internet tarmog'iga to'liq ulanishi ta'minlanadi; inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilarni qabul qilish va boshqa ta'lim muassasalariga o'tkazish uchun davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmi joriy etiladi. [4]

### **XULOSA**

Inklyuziv ta'lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim olishini ta'minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo'lmasa) muntazam maktablarga qabul qilishini nazarda tutadi. O'ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda maxsus maktablar va maxsus rehabilitasiya markazlari yoki muntazam maktablar qoshidagi maxsus sinflarda korreksion dasturlar yordamida ta'lim oladilar. Ushbu maktablarda ta'lim ta'minoti albatta bolaning zaruriyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirish ko'zda tutiladi(1-ilova).

Inklyuziv ta'limning bir qator foydali jixatlari bilan birga uning samaradorligiga ta'sir etayotgan bir qator kamchiliklarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin(2 -ilova)

### **FOYDA VA KAMCHILIKLAR**

Qobiliyati va imkoniyatlaridan qat'i nazar, barcha talabalar uchun teng huquqlar Inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazaning yetishmasligi

O'qitish jarayonida repetitorning individual yordami Maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur bo'lgan o'qitilgan pedagoglar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning yetishmasligi

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni egallash Standart o'quv rejasi ayrim ehtiyojli bolalar uchun mos emas, shuning uchun qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilishni talab qiladi

Sifatli ta'lim olish va kelajakda -universitetda o'qish, kasbni egallash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati. O'qituvchilar alohida ehtiyojli bolalarning bilimlarini xolisona baholaydilar, shuning uchun bilimlarni baholash ko'pincha to'g'ri emas

Oddiy bolalar hamdardlik, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar Sog'lom bolalar va ularning ota-onalaridan nogironlarga nisbatan do'stona va ko'pincha dushmanona munosabat

Mazkur kamchiliklarni baratrafi etish borasida yurtimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.( [http : //marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939. htm](http://marifat.uz/marifat/ruknlar/rasmiy/4939.htm))

2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz

3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi(UNCPRD) 2006-yil 13-dekabr

4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.( <https://lex.uz/docs/-5044711>)

5. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi.( <https://le6.uz/docs/-5044711>)  
6. IB Siddikov . Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi. Вестник Узбекистана  
7. M Mamatov, A Isomiddinov, S Yuldashev. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth. Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth

8. International Journal of Progressive Sciences and Technologies 16 (2), 311-313\